



Vaziyat

O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

2024-yil
14-noyabr
№ 46 (987)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

YANGI BINO FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI



Mamlakatimizda keyingi yillarda "Yangi O'zbekiston" shiori ostida ulug'vor bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayapti. Eski turar-joylar o'rnida yangi-yangi massivlar, osmono'par binolar, tibbiy-ijtimoiy ahamiyatga ega muassasalar qurilmoqda. Davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishdir. Bu borada FVV tizimidagi qutqaruvchilarning shart-sharoitlarini yanada yaxshilashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jizzax viloyati Zomin tumanida viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining O'rmon yong'inlarini bartaraf etishga ixtisoslashtirilgan yong'in-qutqaruv otryadi yangi bino-si foydalanishga topshirildi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor A.Qo'ldoshev, tuman hokimi A.Abdug'aniyev, sektorlar rahbarlari, favqulodda vaziyatlar boshqarmasi mas'ul vakillari, huquq-tartibot idoralari xodimlari, mahalla faollari va faxriylar ishtirok etdilar.

Mazkur inshoot, haqiqiy ma'noda, qutqaruvchilar uchun bayram tuhfasi bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Tadbir davomida o'tgan davr mobaynida viloyat FVB xodimlari tomonidan dovon hududida tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, aholini bunday vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga oid bilimlarini mustahkamlash, qutqaruv tuzilmalarini zamonaviy avariya-qutqaruv texnikalari bilan ta'minlash, moddiy-texnik bazasini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar muhim ahamiyatga ega ekani alohida ta'kidlandi.

Yangi bino ko'rgazmali vositalar, zarur inventarlar bilan jihozlangan o'quv-amaliy mashg'ulotlar hamda gaz-tutundan himoyalash xonalari, transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatuvchi garaj, shuningdek, sport zali va oshxona talab darajasida hozirlandi.

Bundan tashqari, zarur jihozlar bilan ta'minlangan sport maydonchasi, o'quv-mashg'ulotlar minorasi, o'quv va dam olish, smena boshlig'i, dispetcher, inspektor, bo'lim boshlig'iga alohida xonalar, oshxona, asbob-anjomlar saqlanadigan ombor, majlislar zali xizmat ko'rsatmoqda. Bu esa o'z o'rnida bo'linmaning jangovar shayligini yanada oshirishga qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

Tantanalni tadbirda so'z olganlar bu kabi zamonaviy sharoitlar shaxsiy tarkibning o'z xizmat vazifasiga yanada mas'uliyat bilan yondashishi, ijtimoiy-iqtisodiy maskanlar, fuqarolar xonadonlarini yong'inlardan himoya qilishga bor kuch-g'ayratini safarbar etishga xizmat qilishiga ishonch bildirdilar.



DOLZARB VAZIFALAR BELGILANDI

Favqulodda vaziyatlar vaziri o'rinbosari polkovnik Sh.Jo'rayev boshchiligida Namangan viloyatida kuz-qish mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'inlar, is-gazidan zaharlanish va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida uchrashuv o'tkazildi.

Tadbirda ta'kidlanganidek, havo sovib borgani sayin isitish moslamalariga ehtiyoj ortib boradi. Shu davrda tabiiy gaz yoki muqobil yoqilg'i mahsulotlaridan foydalanish hajmi keskin oshgani sababli uylarda, tunda insonlar qoladigan joylarda ehtiyot choralariga amal qilmaslik holatlari ko'p uchraydi. Isitish muammosi bilan bog'liq fojealarning tez-tez bo'lib turishi sababli, qish fasli yilning eng tashvishli mavsumi hisoblanadi. Bir necha yillardan buyon har yili aynan qish mavsumi arafasida mamlakatimizda yong'inlar bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida "Yong'in xavfsizligi oyligi" o'tkaziladi. Chunki mavsumni betalafot o'tkazish eng avvalo, yong'inlar bilan bog'liq vaziyatning oldini olish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirishni talab etadi.

Aholining yong'in xavfsizligi masalalarida bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda ularda shaxsiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari hamda uy-joy fondini yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq holga keltirish asosiy maqsad qilib olingan.

Qayd etilganidek, uy-joylar, bozor, yirik savdo majmualari va aholi ko'p to'planadigan boshqa obyektlarda keng qamrovli profilaktik-ogohlantiruv tadbirlari kuchaytirilishi zarurdir. Mahallalarda "xonadonbay" tartibida o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlarda aholi o'rtasida yong'inlar, is gazidan zaharlanish yoki havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tushuntirish va targ'ibot ishlari yanada jadallashtirilishi kerak. Barcha turdagi ta'lim tashkilotlarida o'quvchi va talabalar bilan yong'inlar, is gazidan zaharlanish va havo-gaz aralashmasi chaqnashining ayanchli oqibatlarini, ushbu fojealardan saqlanish choralariga o'rgatish joizdir.



Shuningdek, yong'in xavfsizligi holati, ishlab chiqarish texnologik jara-yonlarida va ishlab chiqarish

asbob-uskunalarida yong'in chiqish xavfini kamaytirish, elektr tarmoqlari va elektr asbob-uskunalaridan xavfsiz foydalanish, yong'inga qarshi suv ta'minoti, yong'inga qarshi talablarga rioya qilish, yong'inlarning oldini olish yuzasidan o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlar xususida so'z yuritildi.



Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan dolzarb muammolarni soha mutaxassislari tomonidan zamonaviy inovatsion texnologiyalar asosidagi yechimini topish va ilmiy izlanishlar olib borishga alohida e'tibor berilayotgani, bu boradagi muammolar yechimiga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi ta'kidlandi. Yig'ilish davomida zamonaviy yong'in o'chirish texnikalari va asbob-anjomlari bilan tanishtirildi.

Dolzarb mavzudagi mana shunday anjumanlarning yuqori saviyada tashkil etilishi orqali sohada mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash, ilmiy muhokama qilish, hal etish yo'llari bo'yicha asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.

FAOLIYAT

Nazorat hududidagi harbiy qism va muassasalarda o'rganishlar davom ettirildi.

Jarayonlarda energetika xavfsizligini ta'minlash, qish mavsumini betalafot o'tkazish borasidagi ishlarning ahvoli, bunda elektr va tabiiy gaz tarmoqlarini mavsumga shayligi holatiga e'tibor qaratildi.

Harbiy qism va muassasalar hududida amalga oshirilayotgan qurilish-ta'mirlash

ishlariga ahamiyat berilib, mutasaddilar bilan muloqotlar o'tkazildi va tegishli tavsiyalar berildi.

Yakunida o'rganishlar natijalari mas'ullar ishtirokidagi ochiq muloqot davomida muhokama qilinib, tegishli tavsiya va ko'rsatmalar berildi.

Sobir ASHRAPOV,
Termiz harbiy prokuraturasi
katta tergovchisi, adliya
podpolkovnigi.

E'TIBOR

"11-noyabr – Kasaba uyushmalari kuni" munosabati bilan Namangan viloyati FVBda tadbir bo'lib o'tdi.



Unda boshqarma boshlig'i polkovnik Bunyod Egamnazarov shaxsiy tarkibni tabriklaadi. Tizimda xizmat faoliyatini

olib borayotgan va yuqori natijalarga erishayotgan sportchilarni taqdirledi. O'ziga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarib, shaxsiy tarkibga o'rnatib bo'layotgan, jamoat ishlarida faol qatnashib kelayotgan xodimlarga tashakkurnoma hamda kasaba uyushmasining qimmatbaho sovg'alarini topshirdi.

Abdug'ani XADJAYEV,
Namangan viloyati FVB
HFXO'M katta o'qituvchisi.

NAZARIY VA AMALIY TARZDA

FVV Fuqaro muhofazasi institutining bir guruh professor-o'qituvchilari hamda hamkor tashkilotlar vakillari ishtirokida M.Ulug'bek tumanidagi "Alisherobod", "Chingildi", "Iqtidor", "Xumoyun" MFYlarida, Qibray tumanida joylashgan Astraxan universitetining talabalariga, mavsumiy favqulodda vaziyatlar "Favqulodda vaziyatlar tasnifi va zilzila vaqtida to'g'ri ha-

rakat", "Is gazidan saqlanish va yong'inning oldini olish, sodir bo'lganda birlamchi o't o'chirish vositalaridan to'g'ri foydalanish" mavzulari bo'yicha nazariy va amaliy suhbat o'tkazildi.

Ishtirokchilarni qiziqtirgan savollariga javob berildi.

X.AZIMOV,
FMI kafedra katta o'qituvchisi.

DAVRA SUHBATI

FVV Akademiyasida "Yo'l qoidasi – umr foydasi" mavzusida tadbir tashkil etildi.

Unda akademiya boshlig'i general-mayor R.Haydarov, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi YHXB axborot xizmati boshlig'i podpolkovnik Q.Xudoyberganov, akademiya harbiy xizmatchilari, ishchi-xizmatchilar, kursantlar va OAV xodimlari ishtirok etdilar.

Davra suhbatida shaxsiy tarkibga yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilish, yo'l-transport hodisalarining oldini olish xususida fikr yuritilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash haqida"gi qarorining mazmun-mohiyati yetkazildi.

Qayd etilganidek, bugungi kunda yurtimizda avtomobil

bil haydovchilari tomonidan turli ehtiyotsizlik, belgilangan qoidalarga amal qilmaslik natijasida qo'pol ravishda qonunbuzilish holatlari sodir etilmoqda.

Tadbir yakunida ishtirokchilarning savollariga atroflicha javob berilib, yo'l harakati qoidalarini qo'pol ravishda buzilishi natijasida sodir etilgan yo'l-transport hodisalari va ularning ayanchli oqibatlariga oid videoroliklar namoyish qilindi. Shu bilan birga, katta yo'ldan o'tayotganda mobil telefon hamda quloqchinlardan foydalanmaslik, bunday holatlarda ma'muriy javobgarlik mavjud ekanligi xususida tushuntirishlar berildi.

Baxshullo JAHONQULOV,
FVV Akademiyasi axborot xizmati boshlig'i.

O'RGANISHLAR DAVOM ETDI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Xorazm viloyatida o'rganishlar olib borildi.

Xususan, viloyat hokimligida mutasaddilar ishtirokida amaliy seminar o'tkazilib, qish mavsumini betalafot o'tkazish va iste'molchilarni yoqilg'i-energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlash masalalari hamda bu boradagi ishchi guruh faoliyati natijalari muhokama qilindi.

Jarayonda energiya resurslarini iqtisod qilish bo'yicha belgilangan tadbirlarni bajarish borasidagi ishlar, ijtimoiy soha obyektlari, tadbirkorlik subyektlari va aholi xonadonlariga muqobil energiya manbalari o'rnatishning

afzalliklari hamda imtiyozlari haqida malakali mutaxassislar tomonidan batafsil tushuntirishlar berildi.

Shuningdek, ijtimoiy soha obyektlari, boshqaruv servis kompaniyalari vakillari, mahalla raislari va faollari, yirik ishlab chiqaruvchilar va fuqarolar ishtirokida energotejamkor uskunalar ko'rgazmasi tashkil etildi.

Asnoda idoralar va ta'minotchi korxonalarining qish mavsumiga shayligi darajasi yana bir bor ko'zdan kechirilib, mas'ullarga tegishli topshiriqlar va ko'rsatmalar berildi.

Umid NIZAMOV,
Urganch harbiy prokurori, adliya podpolkovnigi.

KO'RIK-TANLOV



FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida boshlang'ich tayyorgarlikdan o'tayotgan qutqaruvchilar tarkibi bilan o'quv yig'ini davomida o'tilayotgan fanlardan olgan bilim va kasbiy ko'nikmalarini mustahkamlash, ularning ma'naviy-ilmii dunyoqarashini shakllantirish, mamlakatimiz ravnaqi yo'lida

xizmat qiladigan iqtidorli tinglovchilarni aniqlash, tinglovchilarning ma'naviy va intellektual salohiyatlarini rivojlantirish maqsadida "Siz qonunni bilasizmi" mavzusida ko'rik-tanlov o'tkazildi.

O'tkazilgan ko'rik-tanlovda 1-o'rinni 4-vzvod tinglovchilari egallashdi.

G'olib jamoa tarkibida tinglovchilardan N.To'rayev, N.Saidov, J.Eshmatov, A.Berdialiyevlar faol ishtirok etdilar.

U.JUMANOV,
FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi sikl katta o'qituvchisi, podpolkovnik.
SH.MAMATQULOV,
markaz J va QT sikli o'qituvchisi, mayor.

TEZKOR YIG'ILISH

Namangan viloyati FVBda is gazidan zaharlanish, yong'in, chaqnash hamda sel-suv toshqinlarining oldini olish va sodir bo'lganda tezkorlik bilan bartaraf etish yuzasidan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Boshqarma boshlig'i polkovnik Bunyod Egamnazarov

tomonidan shaxsiy tarkibga viloyat hokimi – Fuqaro muhofazasi boshlig'ining topshirig'i yetkazildi. Aholi yashash xonadonlari, xalq xo'jaligi maskanlarida profilaktik tadbirlarni jadal ravishda olib borish, shaxsiy tarkib hamda qutqaruv avtomashinalari soz va jangovar holda turishi, har bir holat-

ga vaqtida yetib borish, holatlar bo'yicha axborot berish va tezkorlik bilan bartaraf etish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Boshqarmaga yangi lavozimga tayinlanganlar o'qib eshitildi.

Qahramon SATTAROV,
Namangan viloyati FVB
axborot xizmati boshlig'i,
kapitan.

YARASHUV INSTITUTI

2001-yil 29-avgustda "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-prosessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JK 661-moddasi bilan to'ldirilib, jinoyat qonunchiligiga moddada sanab o'tilgan jinoyatlar uchun jinoyatlarni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligi to'g'risidagi qoida kiritildi. Birinchi marta jinoyat qonunchiligida yarashuv instituti joriy etilib, bugungi kungacha takomillashtirilgan holda amaliyotda keng qo'llanilib, o'zining ijobiy natijasini berib kelmoqda. Bu o'z navbatida jamiyatimizda o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, insonparvarlik tamoyili qo'llanilib kelinayotganligidan dalolat beradi. Bu hayotda inson bilib-bilmay xatolikka yo'l qo'yadi. Ba'zida esa o'z harakatini boshqara olmay huquqbuzarlik sodir etadi. Mamlakatimizda jinoiy jazolarning leberallashtirishi munosabati bilan jinoyat qonunchiligida yarashuv instituti joriy etildi.

Sudlanuvchi T.X. shu yilning 12-mart kuni Muqimiy ko'chasida tanishi I.K.ni aldagan. Gap shundaki, T.X. tanishiga tegishli bo'lgan bahosi

2.000.000 va 1.000.000 so'mlik uyali telefon apparatini "Bir qo'ngiroq qilsam", deb olgan. Go'yoki o'zini gaplashgandek tutib, I.K.ning chalg'iganligidan foydalanib voqea joyidan yashiringan.

Sud majlisida sudlanuvchi T.X. aybiga to'liq iqror bo'lib, qilgan ishidan pushaymonligini, jabrlanuvchi bilan o'zaro yarashganligini, I.K.ga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplab berganligini, jabrlanuvchining unga nisbatan da'vosi yo'qligini inobatga olgan holda o'ziga nisbatan jinoyat ishini yarashuv asosida harakatdan tugatishni so'radi.

Jabrlanuvchi ham sud majlisida T.X.ga nisbatan hech qanday da'vo va e'tirozlari yo'qligini, u bilan yarashish to'g'risida ariza berganligini, o'rtalaridagi yarashuv ixtiyoriy ekanligini bildirib, suddan yarashuvni tasdiqlashni va jinoyat ishini tugatishni so'radi.

Sud mazkur jinoyat ishini taraflar yarashganligi munosabati bilan harakatdan tugatib, T.X.ni javobgarlikdan ozod qildi.

Aytish kerakki, yarashuv institutining keng qo'llanilayotganligi tufayli qanchadan qancha hamyurtlarimiz jazodan ozod etilib, oilasi bag'rida hayot kechirmoqda.

Azimjon HAKIMOV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Yakkasaroy tuman sudining sudyasi.

BREND MAHSULOTLAR

“O‘zekspomarkaz” pavilonida Securex Uzbekistan – O‘zbekistondagi xavfsizlik tizimlari va yong‘inga qarshi tizimlar bo‘yicha eng yirik ko‘rgazma o‘tkazildi. Unda eng yangi, zamonaviy texnik xavfsizlik va yong‘inga qarshi uskunalar namoyish etildi. Tadbirda FVV vakillari ham faol ishtirok etib, “GST” brendi ostida ishlab chiqarilayotgan yong‘in avtomatika qurilmalari, shuningdek, yong‘inlarni bartaraf etishda foydalaniladigan texnik jihozlar bilan yaqindan tanishdilar.



Ma‘lumki, bugungi kunda respublikamiz hududida keng ko‘lamli qurilishlar olib borilmoqda. Ko‘p qavatli binolar qad rostlamoqda. Ushbu obyektlarni xalqimizga ko‘p yillar xavfsiz xizmat ko‘rsatishini ta‘minlashda yong‘in avtomatika tizimi asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Chunki “tilsiz yov” ko‘p holatlarda katta moddiy va ma‘naviy zarar etkazishi, eng achinarlisi esa odamlar hayotiga zomin bo‘lishi hech gap emas.

– Bunday ayancli holatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun, birinchi navbatda yong‘in chiqishining oldini olish, yong‘in paydo bo‘lgan vaziyatda uning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun tezkorlikni ta‘minlovchi, yong‘in o‘chirish vositalarining ahamiyati beqiyosdir, – deydi “FireWise Enterprises” MChJ rahbari Muzaffar Qodirov. – Qolaversa, jahon hamjamiyati oldida turgan eng global muammolardan biri ham yong‘in balosini jilovlash va unga qarshi kurash hisoblanadi. Shularni

inobatga olgan holda dunyo bozorida ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan yong‘in avtomatikalarini ishlab chiqarish bo‘yicha brend kompaniyalarni uzoq vaqt o‘rganishga harakat qildik. Mana shu o‘rganishlarimiz davomida Xitoyning Gulf Security Technology Co., Ltd, “GST” brend kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan yong‘in avtomatika qurilmalarining texnik ko‘rsatkichlari hozirgi zamon talablariga mosligini ko‘rib, to‘la ishonch hosil qildik.

E‘tirof etildiki, hozirgi kunda yong‘inning boshlang‘ich davrini aniqlashda manzilli yong‘inga qarshi tizimlar progressiv va samarali deb topilgan. Bunday tizimlar xabarlovchi shleyfining halqasimon arxitekturaviy tuzilishi bilan farqlanadi. Manzilli yong‘indan xabarlovchi tizimlar binoning avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga ulanib ishlatilishida samarali hisoblanadi. Bunday tizimlarda oldindan ishlab chiqilgan algoritmlar asosida manzilli va nomanzilli bo‘lgan barcha qurilmalar orasida ma‘lum hamkorlik ko‘zda tutilgan. Nafaqat yong‘in xabarlovchilari, balki inson ishtirokisiz berilgan dastur asosida barcha tizimlar mantiqiy hamkorligini ta‘minlovchi yong‘inga qarshi nazorat va boshqaruv modullari ham manzilli bo‘lishi mumkin.

Anvar QOBILOV.

DOVONDAGI KO‘CHKI

A-373 avtomobil yo‘lining “Qamchiq” dovoni hududidan o‘tuvchi 238,5 kilometrda “Vodiy – Toshkent” yo‘nalishida tog‘ qiyaligidan yog‘ingarchilik natijasida namlanish hisobiga nomustahkam tosh va tuproq aralashmasi ko‘chkisi kuzatildi.

Ko‘chki yo‘lining xandaq qismiga tushgan bo‘lib, harakat xavfsizligiga ta‘sir etmagan. Hodisa natijasida tan jarohati olganlar yo‘q.

Voqea joyida “Kamchiqavtoyol” IYFUK kuch va vositalari bilan ko‘chki massalari tozalangan. “Qamchiq” maxsus qidiruv, yong‘in-qutqaruv boshqarmasi va YPX otryadi xodimlari avtomobil yo‘lida xavfsizlik choralarini ko‘rishgan.

Shaxzoda ABDUSATTOROVA,
“Qamchiq” maxsus qidiruv,
yong‘in-qutqaruv boshqarmasi bosh
mutaxassisi

HUSHYORLIKKA CHORLOVCHI OYLIK

Qashqadaryo viloyati FVB mas‘ullari tomonidan joylarda “Yong‘in xavfsizligi oyligi”ni yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida alohida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, aholi hushyorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar boshlab yuborildi.

Mas‘ullar tomonidan bozor va savdo majmualarida, jamoat transportlari, ya‘ni avtobuslarda fuqarolarga yong‘in xavfsizligini ta‘minlashga oid muhim tushuntirish ishlarini tashkil etish xususida topshiriqlar berildi. Mazkur tadbir doirasida, mas‘ullar tomonidan



oliy ta‘lim muassasalarida davra suhbatlari va boshqa targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi.

Rahimbek ESHONQULOV,
Qashqadaryo viloyati FVB bo‘lim
bosh inspektori, kapitan.

FVV Akademiyasi 1-batalyon komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari mayor J.Nodirov mas‘ulligida bir guruh kursantlar Muqimiy nomidagi davlat musiqali drama teatrida bo‘lishdi.

MAZMUNLI HORDIQ

Ularni madaniy hordiq chiqarishlari uchun “Aqldan ozish hechgapmas” hamda “Qaytar dunyo” nomli spektakllar namoyish etildi. Taniqli o‘zbek aktyorlari ijrosida bo‘lib o‘tgan mazkur spektakllar kursantlarda yuqori kayfiyat uyg‘otish bilan birga, madaniy-ma‘rifiy salohiyatlarini yanada mustahkamladi.

Kinoteatrda namoyish etilgan “Bahodir Yalangto‘sh” nomli milliy kino esa kursantlar ongida milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom tuyg‘ularini yanada shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

G‘afur G‘ulom uy muzeyiga amalga oshirilgan sayohat chog‘ida muzeyning tarixiy va qimmatbaho eksponatlari hamda ko‘rgazmali materiallari kursantlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Ular



muzei tarixi, undagi eksponatlar, shuningdek, adibning hayoti va ijodi haqida so‘zlovchi turli surat va ko‘rgazmalar to‘g‘risida qiziqarli ma‘lumotlarga ega bo‘ldilar.

Farhodjon XOJAYEV,
FVV Akademiyasi katta
o‘qituvchisi, mayor.

TEMIR YO‘LDAGI MASHQ

“Angren-Pop” elektrlashtirilgan temir yo‘lining Qamchiq dovonidan o‘tgan qismining 64-va 65-km.larida joylashgan ko‘priklari hududida “Sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishda obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalarini hududiy FVDT xizmatlari bilan hamkorlikdagi harakatlari” mavzusida 3 bosqichdan iborat maxsus-taktik o‘quv mashqi o‘tkazildi.

Mashg‘ulotlar davomida ishtirokchilar hamda maxsus muhandislik texnikalarining saf ko‘rigi o‘tkazildi. Ko‘rik davomida qatnashchilarga mashqning g‘oyasi va maqsadi yetkazildi va favqulodda vaziyatlarda obyekt navbatchi-dispatcherlik xizmati xodimlarining vaziyat yuzasidan axborot-ma‘lumot almashinuvi tartibi o‘rganildi.

“Angren-Pop” elektrlashtirilgan temir yo‘lining “Qamchiq” dovoni qismida o‘tgan 54-va 65-km.laridagi ko‘priklar hududida shartli zilzila natijasida xarxang temirning ustki qismiga tushdi. Yo‘lovchi poyezd izidan chiqib uning tarkibidagi 1 ta vagonda yong‘in yuza-



ga keldi. Obyekt FM tuzilmasi va FVDT xizmatlari kuch-vositalari tomonidan sodir bo‘lgan favqulodda vaziyatlar va yong‘in oqibatlarini bartaraf etish, jabrlanganlarni evakuatsiya qilish bo‘yicha hamkorlikdagi amaliy tadbirlar bajarildi.

Ulug‘bek NORBOYEV,
“Qamchiq” MQYOQB otryad
komandiri, katta leytenant.

MUSOBAQA



Samarqand shahridagi Olimpiya zaxiralari tayyorlash sport majmuasida FVV tizimidagi harbiy xizmatchi hamda xizmatchilari o‘rtasida sportning kurash turi bo‘yicha “Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi” musobaqasi bo‘lib o‘tdi.

Qatnashchilar 7 ta vazn toifasida o‘zaro bellashdilar. Birinchi kunda 4 ta vazn toifasi bo‘yicha g‘oliblarni aniqlash uchun bahslar bo‘lib o‘tdi. Final bahslari yakuniga ko‘ra, 60 kg. vazn toifasida viloyat vakili Xurshid Choriyev, 73 kg. vaznda surxondaryolik Jasur Yuldoshev, 90 kg. vazn toifasida ham surxondaryolik Orifjon Rustamov hamda 100 kg. vazn

toifasida Samarqand viloyatidan Sardor Toyirov g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Ikki kunga mo‘ljallangan ushbu musobaqaning keyingi kunida ham bahslar davom etib, 3 ta vazn toifasida g‘oliblar aniqlandi. Qizg‘in va murosasiz kurashlar ostida o‘tgan final bahslari yakuniga ko‘ra, 66 kg. vazn toifasida samarqandlik Jonibek Mamatov, 81 kg. vazn toifasida Surxondaryo vakili Asad Choriyev hamda +100 kg. vazn toifasida ham Samarqand og‘lioni Asror Hamidov g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.

Musobaqa yakuniga ko‘ra, umumjamoat hisobida 1-o‘rinni Samarqand viloyati FVB terma jamoasi qo‘lga kiritgan bo‘lsa, 2-o‘rin Surxondaryo viloyati FVB terma jamoasiga nasib etdi. 3-o‘rin esa Qashqadaryo viloyati FVB terma jamoasi vakillariga nasib etdi.

G‘oliblar kubok, medal, diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Bahriddin MUSURMONQULOV,
Samarqand viloyati FVB bo‘lim
boshlig‘i, podpolkovnik.

STANSIYADA...

Uchqo'rg'on tumani FV bo'limi tomonidan tumandagi "Tegirmon" MFY hududida joylashgan "Xisorot gidro qurilish" MCHJ tomonidan kichik gidroelektr stansiyasida qurilish ishlarini olib borayotgan quruvchilar hamda ishchi-xodimlarga vaqtinchalik tashkil etilgan yotoqxonalarda texnika hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish yuzasidan tungi tekshiruvlar o'tkazildi.

Bunda quruvchi tashkiloti xodimlarini havo harorati keskin sovub ketishi oqibatida issiqlikka bo'lgan talab yuqori bo'lishi, quruvchi ishchi-xodimlarga vaqtinchalik tashkil etilgan yotoqxonalarda nostandart va nosoz elektr jihozlaridan foydalanilmaslik, belgilanmagan joylarda tamaki mahsulotidan foydalanmaslik va ochiq olovdan ehtiyot bo'lish zarurligi tushuntirildi. Muddati o'tgan qo'lbola tayyorlangan konserva mahsulotlaridan iste'mol qilmaslik yuzasidan profilaktik ishlar olib borildi hamda ishchi-xizmatchilarga yo'riqnomalar berildi.

Donyor XOLIKOV,
Uchqo'rg'on tumani FV bo'limi DYON katta inspektori, kapitan.

HAMKORLIKDAGI AMALIYOT

Toshkent viloyati FVDT tizimidagi tuzilmalar bilan birgalikda "O'zbekiston GTL" MCHJ ga qarashli "GTL Chinoz terminali" fuqaro muhofazasi tuzilmalarining birgalikdagi harakatlarini ishlab chiqish" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi bo'lib o'tdi.



Mashq yakunida FVDT xizmatlari rahbarlariga favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda vujudga kelgan vaziyatning oldini olish va uning oqibatlarini imkon qadar kamaytirishda aloqador xizmatlar bilan hamkorlikda samarali harakatlanishni takomillashtirish tadbirlarini amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar berildi.

M.QOZOQBOYEV,
"GTLChinoz terminali" OYOXTTEB inspektori, kapitan.

SEMINAR

Nurobod tumani hokimligida "Kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish, is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va yong'inlarning oldini olish" mavzusida o'quv-seminari o'tkazildi.

Unda Samarqand viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari U.Ahrorov tomonidan yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish, is gazidan zaharlanish sabablari va uning aynanchli oqibatlarini, bunday holatlarning oldini olish bo'yicha batafsil tushuncha va ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, "Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi" doirasida amalga oshiriladigan ishlar, zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar va ularda to'g'ri harakatlanish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar berildi.

Yakunda ishtirokchilarga mavzuga doir tarqatma material va eslatmalar tarqatildi.

Samarqand viloyati FVB axborot xizmati.

Namangan viloyati Davlatobod tumani "Yuksalish" mahallasidagi ko'p qavatli aholi turar-joylarida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo'yicha ko'rgazmali taktik-o'quv mashqi o'tkazildi.

AMALDA KO'RILDI



Mashqda shartli ravishda 10-qavatda yong'in hodisasi sodir bo'lgan, qutqaruvchilar tomonidan aholini evakuatsiya qilish jarayoni, ularga birinchi yordam ko'rsatish, qidiruv-qutqaruv ishlarini tashkil etish va sodir bo'lgan yong'inni bartaraf etishda to'g'ri qaror qabul qilish, yong'in o'chirish rahbari tomonidan tezkor boshqaruv shtabini tashkil etish ishlari amalda ko'rib chiqildi.

Mashq yakunida viloyat FVB boshlig'ining birinchi o'rinbosari — Shtab boshlig'i polkovnik Akmaljon O'rinboyev tomonidan favqulodda vaziyatlar yong'in-qutqaruv bo'linmalari shaxsiy tarkibi va hamkorlikdagi xizmatlar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar joyida muhokama qilinib, qo'shimcha yo'riqnomalar o'tkazildi.

A.SOYIBNAZAROV,
Namangan viloyati FVB bo'lim boshlig'i.
S.USMONOV,
Davlatobod tumanni FVB PNB inspektori, leytenant.

MAVSUMGA TAYYORGARLIK

Asaka tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan kuz-qish mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida daxldor tashkilotlar bilan hamkorlikda profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Is gazidan zaharlanish, havo-gaz aralashmasining chaqnashi, yong'inlarning oldini olish hamda ijtimoiy soha obektlaridagi mavjud ko'mir zaxirasini saqlash qoidalariga rioya qilinishi o'rganilmoqda.

Muhiddin JALOLDINOV,
Asaka tumani FV bo'limi katta inspektori, kapitan.

TAVSIYALAR BERILDI

Dang'ara tumani FV bo'limi tomonidan tumandagi aholi xonadonlari, ijtimoiy soha obyektlarining qish mavsumiga tayyorgarligi, issiqlik elektr energiyasi tabiiy va suyultirilgan gaz hamda ko'mirdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish borasida qator tushuntirish-targ'ibot tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Ishchi guruhlarini tomonidan aholi yashash xonadonlari, turli korxonalar va tashkilotlar hamda qator inshootlardagi barcha elektr, gaz va shu kabi texnik jihozlar yana bir bor nazoratdan o'tkazilmoqda. Shuningdek, mazkur xonadonlarda texnik jihozlarning o'rnatilganlik holatlari, ishlash jarayoni hamda yong'in xavfsizligi talablariga qay darajada mos kelishi o'rganilib, fuqarolarga is gazi va yong'inlarning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish borasida tegishli tavsiyalar berilayapti.

M.VALIJONOV,
Dang'ara tumani FV bo'limi bo'linma kichik inspektori, oddiy askar.

MARKAZDA MASHG'ULOT

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida harbiy xizmatchi va xizmatchilarning jangovar, jismoniy va ruhiy tayyorgarligini oshirish maqsadida o'quv yig'ini bo'lib o'tdi.

Unga vazirlik tizimidagi yong'in-qutqaruv bo'linmalariga yangi qabul qilinganlar ishtirokida olov va tutun vaqtida nafas olish yo'llarini himoyalovchi apparatlar bilan qo'shimcha amaliy mashg'ulot o'tkazildi.

J.SAIDOV,
FVV BT va MOM o'qituvchisi, podpolkovnik.

QURILISH OBYEKTLARIDA

Dang'ara tumani FV bo'limi tomonidan 2024-yilning 10 oyi davomida tumandagi qurilishi mo'ljallangan obyektlar bo'yicha tashkilotlardan 26 ta ariza kelib tushgan, mazkur xatlarni o'rganib chiqib, belgilangan tartibda javob xatlari yuborildi.

Qurilishlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida, 63 ta qurilish ishlari olib borilayotgan tashkilot va loyiha idoralariga, ishlab chiqilayotgan loyiha hujjatlarida yong'inga qarshi tadbirlarni o'z vaqtida bajarilishi bo'yicha profilaktika ko'riklari amalga oshirilib, yong'inga qarshi chora-tadbirlarni loyiha hujjatlarida to'liq bajarilishi yuzasidan tavsiyalar berildi.

A.TOJIBOYEV,
Dang'ara tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.
M.VALIJONOV,
bo'lim kichik inspektori, oddiy askar.

TUSHUNTIRISH ISHLARI



Andijon tumanidagi "Kuyganyor" dehqon bozorida kuchaytirilgan tartibda nazorat-profilaktik tadbirlari o'tkazildi.

Tadbirda bozor va savdo komplekslari ma'muriyati, mahalliy hokimlik, ichki ishlar va milliy gvardiya vakillari jalb etildi. Tadbir oldidan yo'riqnoma o'tkazilib, asosiy yo'nalishlar belgilab olindi.

Bozor va savdo komplekslarining mas'ullarini, savdo do'konlari, rastalar va tamaddixonalarda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarni hushyorlikka chorlab, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday favqulodda vaziyatlardan ogoh bo'lish va oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

Tadbir davomida soha vakillari bozor yaqinidagi aholi xonadonlarida bo'lishib kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati, havo-gaz aralashmasining chaqnashi, ovqatdan hamda is gazidan zaharlanish holatlarining oldini olish bo'yicha sohaviy xizmatlar bilan hamkorlikda profilaktik tushuntirish ishlari olib bordilar.

D.SHAKIROV,
Andijon tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.
A.RAHMONOV,
bo'lim boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

Zilzila tabiiy ofatlar ichida keltiradigan talafotlari bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Zilzila vaqtida to'g'ri harakatlarni amalga oshirish, vahima va qo'rquv, sarosima qurbonlarning oshishiga olib keladi. Shuning uchun ham bugungi Yangi O'zbekiston davrida ushbu ofatga qarshi oldindan tayyorgarlik ko'rish, aholining zilzilaga qadar, zilzila vaqtida va zilziladan keyingi harakatlarini to'g'ri tashkillashtirish, ularning bu boradagi bilimlarini oshirish yuzasidan davlatimiz va hukumatimiz tomonidan bir qator hujjatlar, dasturlar qabul qilinib, ularning ijrosiga muhim e'tibor bilan qaralmoqda.

ZILZILADA TO'G'RI HARAKAT

Aksariyat hollarda zilzila bo'lib o'tgandan so'ng xavf to'g'risidagi tasavvurimiz keyingi zilzilagacha so'nib boradi. Ya'ni, faqat zilzila sodir bo'lganidagina unga tayyorgarlik ko'rish, ma'lum chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida o'ylab qolamiz. Vaholanki, O'zbekiston zamini yuqori seysmik faol zonada bo'lganligini e'tiborga olgan holda zilzila to'g'risida aholiga yetarli ma'lumot berishning o'zi shu xavfning oldini olish borasida bajarilishi lozim bo'lgan tadbirlarga katta hissa qo'shishga olib keladi.

Yer bo'laklarining harakati tufayli zilzilalar bo'lgan va hozirgi vaqtda ham bo'lib turibdi. Yerning litosfera bo'laklari va muhim seysmik zonalari xaritasiga nazar solsak, ularning deyarli ustma-ust tushishini ko'ramiz. Eng muhimi, ofatga qadar, ofat vaqtida va ofatdan keyin to'g'ri harakat qilishdir. Tabiiy ofatlar, xususan, zilzila haqida maktab o'quvchisidan tortib, rahbar xodimgacha tasavvurga ega bo'lishi kerak. Ikkinchidan, zilzila bo'lgan taqdirda aholi qanday tartibda harakat

qilishi kerakligi to'g'risida, uying qaysi joylari xavfsiz bo'lishini yoshligidanoq anglab yetsa, favqulodda vaziyatlarning birinchi talabi - sarosimaga tushmaslik, vahimaga berilmaslik kabi to'siqlarni yengib o'tadi.

Shuni unutmash kerakki, uydagi gaz, suv, elektr tarmoqlaridan xavfsiz saqlovchi joylarni bilish, uy tibbiy qutisi, unda birinchi tibbiy yordam uchun zarur dori-darmonlar, noxush vaziyat yuzaga kelganda birinchi xizmat ko'rsatish, tashkilotlarining telefon raqamlari, uy jihozlaridan kitob javonlari, osma asboblarning mahkamligini nazorat qilish, maktab yoshidagi bolalarga zilzila vaqtida harakat qilish tartiblarini uqtirish, ish joylarida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va boshqa ko'rsatmalardan har birimiz boxabar bo'lishimiz shart.

A. TURSUNOV,
Chirchiq shahar HFX O'M katta o'qituvchisi, mayor.
B. RAJABBOYEV,
markaz boshlig'i.

MUHANDISLIK TARBIRLARI



Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani "Kaptarxona" mahallasi hududidan o'qib o'tuvchi Qashqadaryo daryosida qirg'oq mustahkamlash, sel yo'llarining kengaytirish va tozalash ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, viloyat FVB mas'ullari tomonidan ushbu hududda aholi va hududlarni sel, suv toshqinlari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish maqsadida, Qashqadaryo daryosida olib borilayotgan o'zan tozalash va qirg'oq mustahkamlash ishlarining holati o'rganildi. O'rganishlar davomida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan mas'ullarga zarur tavsiyalar berildi.

Husniddin QOSIMXO'JAYEV,
Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'i o'rinbosari, mayor.

O'QUV MASHQI

Qoraqalpog'iston Respublikasi FVBda "Obyektarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi, bo'linmalari inspektorlar tarkibini bilim saviyasi hamda profilaktika ishlari samaradorligini oshirish" mavzusida o'quv mashg'uloti o'tkaziladi.

Mashg'ulot davomida inspektorlar tarkibiga O'zbekiston Respublikasining yong'in xavfsizligi to'g'risidagi qonuni, Davlat yong'in nazorati organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o'zgarishlar hamda o'ta muhim va toifalangan obyektlarda joriy yilning 9 oyi davomida yong'inlar profilaktikasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va yo'l qo'yilgan



kamchiliklar, shuningdek, korrupsiyaning va boshqa salbiy holatlarning oldini olish borasida tarbiyaviy-profilaktik tushuntirish ishlari olib borildi.


SH. DJUMANIYAZOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB OYOXTTEB bosh inspektori, mayor.
A. ISMAYLOV,
katta leytenant

MUHM HAFTALIK

Qashqadaryo viloyatida "Aholini zilzilaga tayyorlash haftaligi" doirasida joylarda, odamlar ko'p to'planadigan manzillarda o'quv-amaliy seminarlar va profilaktik tadbirlar o'tkazilyapti.

Unda soha mas'ullari tomonidan zilzila va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli favqulodda vaziyatlarda harakatlanish qoidalarini, uning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini haqida tushunchalar berib borilyapti.

Shuningdek, ko'rgazmali targ'ibot materiallari orqali yer qimirlaganda uying eng xavfli joylari - ichki va tashqi deraza ostilari, devorlarning oyna bilan qoplangan qismlari, ayniqsa oxirgi qavatlardagi burchakda joylashgan xonalar, lift va zinapoyalar bo'lishi kerakligi,



xona ichida bo'lganda yer qimirlashi boshlanishi bilan 15-20 soniya ichida darhol uydan tashqariga chiqish va elektr simlari, gaz quvurlari va baland imoratlar tagidan uzoqroqqa, ochiq joyga o'tishligi xususida batafsil ma'lumot berilmoqda.

Qashqadaryo viloyati FVB axborot xizmati.

INDIVIDUAL TA'LIM - DOLZARB VAZIFA

Individual ta'lim ta'lim shakllarining eng qadimiysi bo'lib, u qadimgi davr va o'rta asrlarda keng qo'llanilgan.

O'zbekiston ta'limi tarixida Individual ta'lim shakli keng qo'llanib kelingan. Uning samarasi, ayniqsa, amaliy san'at, hunarmandchilikda ustoz-shogird ta'limi tarzida namoyon bo'lgan. Mashhur xalq ustalari Toshpo'lat Arslonqulov, usta Shirin Murodov, Qodirjon Xaydarov, Mahmud Usmonov, Hamro Rahimovlar shu tarzda ta'lim olganlar. Individual ta'limda bola ruhiyatining individual xususiyatlarini, fan sohalari va kasb egallashga bo'lgan tabiiy moyilliklarini to'liq e'tiborga olish imkoniyati ta'minlanadi.

Individual ta'limda o'qitish usuli har bir talaba o'zlari uchun maxsus ishlab chiqilgan o'quv dasturi bo'yicha tanlanadi. Dars davomida ular sinfdoshlari bilan o'tirishadi, lekin kun davomida o'z vazifalarini bajarish uchun asosan yakxon ishlaydilar.

Har bir darsda ular turli vazifalarni va shaxsiylashtirilgan o'quv dasturlarini bajarishadi. O'qituvchi dars bermaydi,

balki har bir talaba uchun kerak bo'lganda shaxsiy yo'l-yo'riqni taklif qiladi.

Ushbu ta'lim shaklida talabaning xobbi va qiziqishlari kuchli va zaif tomonlari; afzal o'rganish usuli; mavzu bo'yicha oldingi bilim ularning o'rganishiga to'sqinlik qiluvchilar ular yangi ma'lumotlarni o'zlashtira olishlari va saqlash tezligiga asosiy e'tibor qaratilishi lozim hisoblanadi.

Xulosa qilish kerakki, individual ta'lim shakli ta'lim-tarbiya jarayonida kutilgan pedagogik natijalarni berib, talaba-yoshlarning orzu maqsadlarini aniqlash, ularga imkoniyatlari va iste'dodlariga hamohang va mutanosib tarzda ta'lim dasturlarini tashkillashtirish va amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Shuning uchun undan ta'limda samarali va faol foydalanish vazifasi pedagogning asosiy kun tartibidan joy olishi kerak.

Abduqayum ABDULLAYEV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Bolalar sporti kafedrasi mudiri, dotsent, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD.).

OGOHLIK DAVR TALABI

Sirdaryo viloyati FVB boshlig'i rahbarligida aholi xonadonlari, ijtimoiy soha obyektlari, odamlar ko'p to'planadigan maskanlar hamda bozor hududlarida kuz-qish mavsumida yong'in xavfsizligini ta'minlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu tadbirlardan biri Guliston shahrida bo'lib o'tdi. Shahardagi buyum bozorida amaliy ishlar olib borildi. Bunda eng ko'p yong'inlar elektr simlaridagi nosozliklar sabab sodir bo'lgani inobatga olinib, savdo do'konlari, umumiy ovqatlanish maskanlaridagi elektr simlari va kabellari shuningdek, suyultirilgan gaz ballonlaridan o'zboshimchalik bilan foydalanish bo'yicha reydtadbirlari o'tkazildi.

Favqulodda vaziyatlar xavfini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlar joyida bartaraf etildi. Aholi xonadonlarida davom etgan profilaktik tadbirlar davomida esa dudburonlarini noto'g'ri



o'rnatilishi, nosoz va qo'lbola isitish moslamalaridan foydalanish kabi holatlarga chek qo'yildi.

Davronbek SULAYMONOV,
Sirdaryo viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.
Sharof JO'RAYEV,
Sardoba tumani FV bo'lim boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

Toshkent shahar FVB xodimlari ko'p sonli mehnat jamoasiga ega bo'lgan manzillarda, o'quv muassasalarida va aholi yashash xonadonlarida ogohlikka chorlov tadbirlarini o'tkazmoqdalar.

PROFILAKTIKA

Mutasaddi xizmatlar tomonidan asosiy e'tibor kuz-qish mavsumiga qaratilib, sovuq kunlarda ehtiyot choralarini ko'rish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, isitish pechlari va elektr uskunalarning sozligiga alohida e'tibor

qaratish borasida keng qamrovli targ'ibot tadbirlari tashkil etilmoqda.

R.ISAYEV,
Toshkent shahar FVB
OYOXTTEB kichik inspektori,
katta serjant.

SOHAVIY SABOQ



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi binosida profilaktik uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbirda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yong'inlarni bartaraf etishda barcha turdagi

qutqaruv ishlarini samarali olib borish yuzasidan atroflicha ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, avariya-qutqaruv asbob-anjomlari qanday imkoniyatlarga ega ekanligi bo'yicha obyekt xodimlari o'zlarining qiziqtirgan savollariga javob oldilar.

Dilshod UMAROV,
Oliy Majlisi Qonunchilik
palatasi binosida yong'in
xavfsizligini ta'minlashni
tashkil etish bo'linmasi kichik
inspektori, serjant.

YONG'IN XAVFSIZLIGI

Toshkent shahar FVB xodimlari tomonidan shahar hududida yangi qurilayotgan ko'p qavatli aholi turar-joylari va ma'muriy binolarda favqulodda vaziyatlar va yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida ishchi-xodimlar bilan suhbatlar o'tkazilmoqda.

Tadbirlar davomida qurilishlarda yong'in chiqish xa-

vfini kamaytirish, xavfsiz ishlaydigan elektr uskunalarni qo'llash va boshqa vazifalar yuzasidan tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Hozirda ushbu targ'ibot ishlari izchil davom ettirilmoqda.

SH.MUSAYEV,
Toshkent shahar FVB
OYOXTTEB kichik inspektori,
kichik serjant.

TUNGI MASHQ

Qashqadaryo viloyati FVB va Qarshi shahar FV bo'limi hamkorligida Qarshi shahar "Oydin" mahallasi hududidagi ko'p qavatli uylarda shartli yong'inni bartaraf etish, insonlarni qutqarish va birinchi yordam ko'rsatish yuzasidan o'quv-amaliy mashg'uloti bo'lib o'tdi.

Mashg'ulot jarayonida, sodir bo'lgan yong'in joyida fuqarolarni qutqarish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, fuqarolarni evakuatsiya qilish va turli favqulodda



vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkazildi.

Mashq yakunida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar muhokama qilindi.

Shohruh ZOIROV,
Qashqadaryo viloyati FVB
bosh inspektori.

SAF KO'RIGI

Buxoro shahar FVDning kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazishga tayyorgarligi bo'yicha saf ko'rigi o'tkazildi. Har bir soha mas'ullariga aholi xonadonlari va ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarda gaz va elektrdan foydalanishda qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'ymaslik, noqonuniy holatlar aniqlanganda

ularni bartaraf etish choralarini ko'rish, gaz va elektr uskunalarni ishlatishda yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratish vazifalari topshirildi.

M. FAYZULLAYEV,
Buxoro viloyati FVB axborot
xizmati boshlig'i, kapitan.

MATBUOT ANJUMANI



Xorazm viloyati FVBda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi va O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi bilan hamkorlikda "Kuz-qish mavsumida yuzaga keli-

shi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong'in xavfsizligi profilaktikasi", shuningdek, 15-noyabrdan 15-dekabrga qadar o'tkazilishi rejalashtirilgan "Yong'in xavfsizligi oyli"ga tayyorgarlik va uni samarali o'tkazish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan matbuot anjumani o'tkazildi.

Tadbir davomida viloyat FVB, "Hududgaz Xorazm" gaz ta'minoti filiali hamda "Xorazm

suv ta'minot" MChJ mutasaddilarining qish mavsumida aholi xonadonlari va ijtimoiy soha obyektlarini issiqlik energiyasi bilan ta'minlash, kommunal soha tizimida amalga oshirilayotgan ishlar hamda mavsumni betalafot o'tkazishga qaratilgan profilaktik tadbirlar to'g'risidagi axborotlari tinglandi.

Rustam ATADJANOV,
Xorazm viloyati FVB
HXO'M o'qituvchisi.

TARG'IBOT

Poytaxtimizda amalga oshirilayotgan targ'ibot tadbirlarida yong'inlar va boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasida muhim fikrlar bayon etilmoqda. Mazkur tadbirlar davomida yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish, isitish

va boshqa moslamalardan xavfsiz foydalanish, bolalarni uyda yolg'iz qoldirmaslik lozimligi tushuntirilmoqda.

Maxsus texnikalar, qutqaruv asbob-anjomlarining ko'rgazmalari o'tkazilib, namoyish davomida ushbu vositalardan foydalanish tartibi o'rgatilmoq-

da. Targ'ibot jarayonlarida sohada amalga oshirilayotgan ishlarga oid videolavhalar ham namoyish qilinib, ishtirokchilarga favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga oid eslatmalar tarqatilmogda.

N.HIMMATOV,
Toshkent shahar FVB
OYOXTTEB kichik inspektori,
kichik serjant.

EHTIYOTKORLIK

Joylardagi yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan tegishli soha mutaxassislari bilan hamkorlikda ushbu holatlar yuzasidan surishtiruvlar olib borilganda, aksariyat hollarda gazli isitish pechlarini va qo'lbo-la yasalgan isitish moslamalarini fuqarolar tomonidan qoidaga xilof ravishda o'rnatilgan, aholiga isitish pechlaridan foydalanish tartib-qoidalarini tushuntirib va ogohlantirib borilishiga qaramasdan fuqarolar beparvolik qilib hushyorlikni unutib qo'yishmoqda.

Ko'p hollarda fuqarolar isitish pechlarini maxsus tash-

kilotlarning mutaxassislariga murojaat etmasdan, bevosita o'zlari o'rnatishmoqda. Bu esa yong'in xavfsizligi qoida-talablarining buzilishiga olib kelmoqda. Mo'rikon noto'g'ri o'rnatilishi oqibatida yonishdan hosil bo'lgan is gazi xonalarga tarqaladi. Eng xavotirlisi, kishi ajralib chiqqan gaz isining salomatligiga ta'sir qilayotganini sezmaydi. Natijada miya ish faoliyati susayadi va inson gazdan zaharlanishi mumkin.

Shuning uchun yong'in xavfsizligi xodimlari tomonidan o'tkaziladigan targ'ibot ishlariga ozgina e'tibor qaratib,

yong'in xavfsizligi qoidalariga doimo rioya qilinsa, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday ko'ngilsiz hodisalarning oldini olgan, farovon hayotimizni yanada gullab-yashnashiga o'zimizning munosib hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

O.HAKIMOV,
Toshkent viloyati FVB bo'lim
bosh inspektori, katta
leytenant.

M.JAXYAYEV,
Quyichirchiq tumani FV
bo'limi katta inspektori, katta
leytenant.

TOPSHIRIQLAR BERILDI

Davlatobod tumanida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni tezkorlik bilan bartaraf etish maqsadida maxsus ko'rik o'tkazildi. Tadbir davomida mexanizatsiyalashtirilgan yig'ma komandalarning muhandislik texnikalari hamda avariya-tiklash guruhlari ishtirokida ko'rgazmali safarbarlik amalga oshirildi.

Ko'rikda tuman FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik



Avazbek Abdullayev ishtirok etib, mexanizatsiyalashtirilgan yig'ma komanda tarkibidagi maxsus avariya-tiklash brigadalarining asbob-anjomlari, muhandislik texnikalari va kuch vositalarini ko'zdan ke-

chirdi. Shuningdek, kechiktirib bo'lmaydigan avariya-qutqaruv jarayonida amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar yuzasidan mas'ullarga tegishli topshiriqlar berdi.

Islomjon MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB
axborot xizmati yetakchi
mutaxassisi.

Sindorbek USMONOV,
Davlatobod tumani FV bo'limi
bo'linma inspektori, leytenant.

OYLIK DOIRASIDA

Ma'lumki, respublikamizda joriy yil 15-noyabrdan 15-dekabr gacha "Yong'in xavfsizligi oyli" tadbiri o'tkazilishi e'lon qilingan. Yong'in bilan bog'liq baxtsiz hodisalar vaqt ham, sharoit ham tanlamaydi. Ularning kutilmaganda vujudga kelishi insonlarning tinch-oyishda hayotini, turar-joylarini

xavf ostida qoldiradi. Xonqa tumanida olib borilayotgan profilaktika tadbirlari natijasida joriy yilning 10 oyida sodir bo'lgan yong'inlar o'tgan yilga nisbatan 45 tadan 42 taga kamaygan. Yong'inlarning oldini olish uchun yosh bolalarni gurgut o'ynashiga yo'l qo'ymaslik, neft mahsulotlaridan foydalan-

ishda ehtiyotkor bo'lish, tabiiy va suyultirilgan gaz va elektr uskunalardan belgilangan qoidalar asosida foydalanish, ochiq olovdan foydalanmaslik, yog'ni dog'lashda uni qarovsiz qoldirmaslik va boshqa qoidalarga rioya qilish zarur.

Doniyor YAQUBOV,
Xonqa tumani FV bo'limi
boshlig'i, mayor.

KITOBXONLIK – BUYUK KELAJAK KAFOLATI VA POYDEVORI

Bugungi kunda jamiyatda kitobning ma'naviy hamda axloqiy ozuqa, madaniyat va til ravnaqi uchun asosiy manba, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan intellektual meros sifatida mavqeyi hamda ahamiyatini saqlash, hatto tiklashga ehtiyoj sezilyapti. Avvalo, badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy hamda jahon adabiyoti namoyandalarining asarlarini saralash, tarjima qilish ishlarini puxta o'ylangan tizim asosida tashkil etish borasida ishlar olib borilmoqda.

Mazkur yo'nalishdagi ishlarni tizimli tashkil qilish uchun, avvalo, huquqiy asoslarni mustahkamlash maqsadida "Axborotlash-tirish to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"-gi, "Noshirlik faoliyati to'g'risida"-gi, "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"-gi qonunlarning qabul qilinishi mamlakatimizda matbaa korxonalarini va nashriyotlar sonini ortib, markazda va joylarda zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlangan axborot-resurs markazlari faoliyati yo'lga qo'yilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu boradagi yutuqlar haqida uzoq gapirish mumkin. Ta'kidlash joizki, bugungi rivojlanish, yangilanish sharoitida, odamlar tafakkuri va dunyoqarashi ham o'zgarib bormoqda va bu o'z o'rnida ularda hayotga nisbatan yangicha talab va istak bilan qarash ko'nikmasini shakllantirib bormoqda.

Shu asnoda jahon jamoatchiligi kitob va kitobxonlik masalasida turli fikrlar bildirilib, ayrim hollarda kitobning o'mini zamonaviy AKT egallaydi, deyilsa, bir guruh mutaxassislar asrlar davomida insonga eng yaqin yo'ldosh bo'lib kelgan kitob taraqqiyotining bugungi bosqichida ham eng yaqin ma'naviy ko'makchi bo'lib qolishini aytishmoqda. Biroq har qanday sharoitda ham kitobxonlik va mutolaa masalasi biz uchun ham zarur.

Zamonaviy kitobxonlikda estetik idrok va did muhim ahamiyatga ega. Estetik didga ega bo'lgan inson atrof-muhitni go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, fojiviylik va kulgililik kabi mezoniy tushunchalar orqali ko'zdan kechiradi. Yuksak estetik didga ega bo'lish odamning o'zining emas, atrofida qilargi ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu qobiliyat tabiiy-tug'malikka borib taqalsada, ammo o'zini asosan tarbiya, ijtimoiy munosabatlar orqali ro'yobga chiqaradi. Estetik did ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg'unlashgan umumiylikdan iboratdir.

Kitob bilan ishlash mentalitet va ehtiyojdan kelib chiqib shakllanadigan, kitobxonning shaxsiy qarashlari tufayli rivojlanadigan jarayondir. Bugungi kunda barcha toifadagilar – o'quvchi, talaba, ishchi, yoshlar, o'rta yoshlilar, keksa avlod o'rtasida kitob o'qishni targ'ib qilish, ularning faol

kitobxon bo'lishiga erishishda ijtimoiy institutlarning rolini oshirish, mutolaa sohasida dasturiy-loyihaviy faoliyatni rivojlantirish, internet-texnologiyalaridan faol foydalanish hamda kitobxonlik faolligini oshirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish maqsadida kitobxonlar, kutubxonachi va targ'ibotchilar o'rtasida "Yosh kitobxon", "Eng kitobxon maktab", "Eng kitobxon mahalla", "Eng kitobxon oila", "Eng faol kutubxonachi" kabi ko'rik-tanlovlarni yuqori saviyada o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Biroq qandaydir manfaat ilinjida kitob o'qilishi insonga pand bermaydimi degan savol bizni qiynaydi. O'z o'rnida albatta pand berishi tabiiy. Chunki inson o'z ehtiyojidan kelib chiqqan holda kitoblar tanlasa, qaysidir tanlov uchun ruhiga nouyg'un. ko'ngliga yiroq kitobni ham o'qishiga to'g'ri keladi. Ammo unutmash kerakki, har qanday vaziyatda ham mutolaa inson tafakkurini shakllantirishda, dunyoqarashini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda kitob mutolaasi bilan shug'ullanish bilan birga uni targ'ib qilish ham muhim masalalardan biridir. Kitobxonlikni turli yosh va soha kishilari o'rtasida targ'ib qilishda mutolaa jalb qilinadigan kitoblarning mavzu yo'nalishlarini ham aniqlab olish muhimdir. Turli toifa kishilari sharoitidan, vaziyatidan, faoliyatidan va kasbidan kelib chiqib kitob tanlaydilar. Tanlovning to'g'ri qilinishi natijaning samaradorligini ta'minlashiga shubha yo'q.

Darhaqiqat, kitob o'qimagan insonning ma'naviyati bo'lmaydi. Dunyoqarashi past bo'ladi, olam sirlarini bilmoq istasak ko'p kitob o'qimoq kerak. Zero, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, "kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai". Xalqimiz tilida ham kitob o'qib bilim va munosib ta'lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug'ullanish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, "Kitobsiz aql –



qanotsiz qush", "Go'zallik – ilmu ma'rifat bilan", "Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar", "Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq", "Baxt belgisi – bilim", "Bilim – aql chirog'i", "Beshikdan qabrgacha bilim izla", "Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol". Bu kabi purma'no va serhikmat naqlar kitobsevar xalqimiz lug'atida ko'plab topiladi.

Mutolaa madaniyatining bugun turli vositalar orqali optimallashtirib borayotgani quvonarli holatlardan biridir. Bosma nashrdan chiqqan kitoblar yoniga elektron nashrlar qo'shildi. Elektron nashrlar internetning keng imkoniyatlari sabab juda ommalashdi. Bunday nashrlar uchun maxsus dasturlarning joriy etilishi texnika taraqqiyotining alohida yutuqi bo'lib, kompyuter, planshet va telefon qurilmalari orqali kitoblarni topish va foydalanishni tezlatib yubordi.

Mutolaa madaniyati kishining manbani to'laqonli tushunishi, undan estetik zavq olishi, muallif fikri va g'oyasini anglashi hamda uni baholay olishi kabi xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Kitobni tanlash, uni o'qish, avaylab saqlash, shaxsiy kutubxona tashkil etish, o'qilgan kitoblarni boshqalarga tavsiya eta olish ham mutolaa madaniyatiga kiradi. Kerakli kitob uchun vaqtni unumli sarflash uchun, atrof-dagilarga uning muhim madaniyat belgisi, ma'rifiy tarbiya vositasi sifatida tavsiya qila olish uchun ham kishida badiiy-estetik did darajasi yuqori bo'lishi zarur. Demak, hamma narsa insonning bilimiga, ma'naviy kamolotiga borib taqalar ekan, kitobxonlik an'alarini davom ettirish, ayniqsa, yoshlar o'rtasida mutolaa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish o'ta zarur vazifaligi o'z-o'zidan ayon.

Insonlarni shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: kitob o'qiydigan va kitob o'qimaydigan.

Kitob o'qiydigan inson saviyali, dunyoqarashi keng bo'ladi, so'zni tanlab gapiradi, mutolaadan olgan xulosalari asosida o'z ustida ishlaydi. Jamiyatda kitob o'qiydigan insonlarning ko'pligi umumiy itellektning yuqori ekanini bildiradi. Ya'ni kitobxonlik – jamiyat saviyasining barometri. Odamlar qancha saviyali bo'lsa, shuncha ko'p kitob o'qiladi va o'sha davlat rivojlanadi.

Kitob o'qimaydiganlarning ham o'ziga yarasha sabab va bahonalari bor. Muhit, imkoniyat, qiziqish, xohish degandek. Qolaversa, texnologiyalar asri yoshlarni internet, ijtimoiy tarmoqlar va gadjetlarga qaram qilib qo'ydi. Vaqt o'tkazish uchun minglab virtual o'yinlar, platformalar mavjudligi, biror ma'lumot kerak bo'lsa, bitta tugmani bosish orqali topish mumkinligi yoshlarni kitobdan, mutolaadan yiroqlashtirmoqda. Mutolaadan yiroqlashish yaxshi holat emas, albatta.

O'zbek xalqida "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan naql bor. Ya'ni farzand tarbiyasi, eng avvalo, ota-onasidan oladi, oiladagi qadriyatlar va an'analar bilan o'sadi. Bola to maktabga borib, jamiyatga qo'shilgunicha dastlabki qarashlari shakllanib bo'ladi. Bundan anglash mumkinki, kitobxonlik madaniyatining shakllanishida oiladagi muhit katta ahamiyatga ega. Ota-onasi kitobxon, bolalikdan kitoblar ichida ulg'aygan yoshning kelgusidagi qarashlari ham kitobdan ayro bo'lmaydi. Demak, kitobxon yoshlarni ko'paytirish uchun avvalo bizga kitobxon oilalar kerak.

Bugungi davrda elektron kitoblarga talab juda yuqori. Smartfonda, xohlagan vaqtda va qulay sharoitda kitobni o'qib yoki eshitib ketishga nima yetsin. Elektron kitob haqida so'z ochilishi bilan ko'pchilik mualliflik huquqi, uni sotib olgan nashriyotlar huquqi buzilishi haqida bong

uradi. Ammo elektron kitoblar asarning bosma shakliga bo'lgan talabni oshirishi ham mumkin. Dunyodagi eng katta kitob sotuvchi kompaniya – Amazonning xabar berishicha, bestseller kitoblarning juda ko'p qismi hali chop etilmasdan turib internetga joylangan asarlardir. Avval internetda mashhur bo'lgan kitoblar bosma holda ham chop etilib, bestseller bo'lmoqda. Nemis ixtirochisi I.Guttenbergning bosmaxonani yaratishi asarlarning kitob shaklida jamlash va sanoat usulida ko'paytirish imkonini berdi. "Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda", degan mashhur naqlning ahamiyati hozir har qachongidan ham oshdi. Eng asosiysi, necha asrlardan buyon sayqallanib, qanchadan-qancha avlodlarga yo'lchi yulduzdek to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan ana shu xalqona hikmatlar negizidagi asl haqiqat shuki, insonning bilim, tarbiya, kasb-hunar va albatta baxtli hamda davlatli bo'lishining muhim omili – bu kitobga oshno bo'lish, hami-sha kitob o'qish va uning mutolaasini umr bo'yi kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning baxtu kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning alohida o'rn bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezigulikka undaydi. Kitob insonni komillikka etaklaydi. Hayot qoidalari yashash san'atini o'rgatadi. Kitob o'qilmagan jamiyatda ma'naviy qadriyatlar aziyat chekadi, xalqning intellektual salohiyati yuksalmaydi. Har qanday buzg'unchi kuch va xurujni yuksak ma'naviyat bilan yengish mumkin. Shu ma'noda kitobxonlik bugun barchamiz uchun hayotiy zaruratga aylanmog'i kerak.

Anvar QOBILOV tayyorladi.

ANTIQA YETTILIK

Inson o'z salomatligini saqlash uchun nimalar qilmaydi, deysiz. Vaqti kelsa sho'r va yog'li mahsulotlardan tiyilish zarur. Lozim bo'lganda "quruq" parhezga ham "o'tirish"ga to'g'ri keladi. Ayrim hollarda shirinlikdan tiyilish zaruriyatga aylanadi. Buni qarangi, o'z sog'lig'ini o'ylab har bir muolajani o'z "sinovi"dan o'tkazib turuvchi qiziquvchilar uchun G'arb olimlari meva-sabzavotlarning antiqa yettiligini tavsiya etmoqda.



Olcha. Sir emas, ko'pchiligimiz nordon ta'mli olchaga nisbatan shirinroq ta'mga ega bo'lgan yirik giloslarni xush ko'ramiz. Buni qarangi, shirinlikka uchib xato qilarkanmiz. Olcha tarkibida keksalik alomatlari va kasalliklar bilan kurashuvchi antioksidant moddalar miqdori ko'p bo'lib, u shamollash va yallig'lanishning oldini olishga ham yordam berarkan. Ayniqsa, nordon ta'milari!



Kivi. To'g'ri, bu tropik meva biroz tansiqroq va albatta boshqa mevalarga nisbatan qimmatroq. Mayin tukli qoplami ajratib olish ham biroz noqulaylik tug'diradi. Biroq bir dona kivi organizm uchun zarur bo'lgan bir sutkalik vitamin "S" me'yoring taxminan 115% mavjud ekan. Buning ustiga u vazn saqlash muvozanatiga ta'sir etmaydi ya'ni, semirtirmaydi, chunki u atigi 45 kilokalloriya quvvatga ega.



Baliq. Yurak qon-tomir tizimi va miya faoliyatining me'yorda ishlashi uchun baliqning tana to'qimalari tarkibida bo'lgan moddalarning ahamiyati beqiyos. Shifokorlarning ta'kidlashicha, sog'lom kishi bir yilda kamida 4-5 kg. baliq iste'mol qilishi zarur ekan. Uni qovurib, qaynatib, dimlab ham yeyish mumkin. Dudlangan va konservalangan baliq mahsulotlari esa o'z yo'liga. Muhimi, baliq go'shti tarkibida organizmning turli kasalliklarga qarshi kurashishida yordam beradigan, ayniqsa miya faoliyati uchun zarur moddalar bor. Oilaviy baliqxo'rlik an'analari esa har tomonlama foydali.

Zig'ir urug'i.

Oramizda ko'pchilik kungaboqar pistasini xush ko'rishi sir emas. Tarkibi yog' va oqsilga boy pista qanchalik shirin va maroqli ermak bo'lmasin, og'iz bo'shlig'i kasalliklari



keltirib chiqaruvchi omil bo'lib qolaveradi. Buning ustiga u ko'zni ilg'amas "tezlikda" semirtiradi ham. Zig'ir urug'i tarkibida esa lignan guruhiga kiruvchi moddalar mavjud bo'lib, organizm bedavo dardlarga chalinishining oldini oladi va ovqat hazm qilish tizimini me'yordashiradi. Yana bir ustunligi, uning po'stlog'i yo'q, tishingiz orasiga kirib qolib asabiylashtirmaydi ham. Ta'mi yoqimsizroq-da desangiz, salatga yoki bo'tqaga aralashtirib iste'mol qiling va foydali moddalardan bahramand bo'ling.



Sut zardobi.

Yuzingizni burishtirmang, axir u siz sevib iste'mol qiladigan pishloq va tvorog tayyorlashdan qoladigan ikkilamchi mahsulotki, shunday bo'lsada u juda foydali. Ishonmay-sizmi? Unda quloq tuting: birinchidan, sut zardobi oqsil moddasiga boy. Bunday oqsil ham foydali, ham ortiqcha vazn to'planishiga olib kelmaydi. Qayta ishlash oqibatida ushbu oqsilning tuzilishi endi qoramol sutidan ko'ra ko'proq ona sutiga o'xshash va oson hazm bo'ladi. Shuning uchun ham bolalar uchun ishlab chiqarilgan tayyor bo'tqalarning ko'pchiligi sut zardobi yordamida tayyorlanadi. Ikkinchidan, uning tarkibida me'da-ichak faoliyatini me'yordashiradigan achiqchilar mavjud.

Karam. Ozishni istagan ba'zi kishilar quyonlar kabi "kemirib" yuradigan oddiy karam tarkibida xoh ishonib, xoh ishonmang, bedavo dardga (onkologik kasalliklarga) qarshi indol va sulforafan moddalari, suyaklar mustahkamligi uchun kalsiy, qon aylanish tizimi uchun temir moddasi bor ekan. Bundan tashqari, hayot uchun zarur aminokislotalar — vitamin "A", "C" va "K"lar mavjud. Ular ko'z faoliyati, ishtaha ochilishi, qon ivishini ta'minlashga xizmat qiladi ekan. Kam kaloriyaga ega bo'lgani uchun ham organizmdagi ortiqcha yog' qatlamlarining erishiga xizmat qiladi va me'da faoliyatiga zarur bo'lgan klechatkaga boy.



Kokos. Bu tansiq tropik meva har doim ham dasturxonimiz bezagi bo'lavermaydi. Qomatini qat'iy dastur orqali saqlaydigan qizlar uni haddan ortiq yog'li deb hisoblashlari ham bor gap. Haqiqatdan ham kokos tarkibida boshqa yong'oq, mevalar kabi yog' miqdori mavjud. Biroq, bu organizmda to'planish xususiyatiga ega bo'lmagan yog'. Kokos yog'ini zararli xususiyatlarga ega palma yog'i bilan adashtirmang! Kokos mevasining tarkibidagi mineral tuzlar, temir va kalsiy moddasi hamda vitaminlar organizm uchun foydali.

G'arb olimlarining antiqa yettilik tavsiyasida ayrim haqiqatlar mavjud. Buni inkor qilolmaymiz. Biroq jannatmakon o'lkamizning meva va sabzavotlari har qanday "antiqalik"dan ustun. Quyoshga to'yingan har qanday meva-cheva-yu sabzavotlari, bir-biridan shirin poliz ekinlari, ilikni to'ldiradigan go'sht, sut va baliq mahsulotlarining koni foyda. Faqat to'g'ri iste'mol qilish va me'yorni bilish kerak.

Masrur SANAYEV tayyorladi.



Vaziyat

gazetasi

Muassis:
O'zbekiston
Respublikasi
Favqulodda
vaziyatlar
vazirligi

Bosh muharrir
Azamat SUYUNOV

Gazeta tahririyat
komp'yuterxonasida
shahifalandi.

Gazeta har haftaning
payshanba kuni chiqadi.
Topshirish vaqti – 15.00
Topshirildi – 15.00

Navbatchi:
A.QOBILOV

Sahifalovchi:
B.SALOHIDDINOV

Tahririyatga yuborilgan
materiallar qaytarilmaydi
va izoh berilmaydi.
Mualliflar fikri
tahririyat nuqtai nazaridan
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar
manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida 2007 yil
3 yanvarda 0096-son raqam
bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2091-5292

Tahririyat manzili:
100084, Toshkent shahri,
Yunusobod tumani,
Sh.Rashidov ko'chasi, 17-A-uy.
Tel.: (71) 212-69-56
Telegram: (90) 016-87-67

Indeks:
yakka obunachilar va
tashkilotlar uchun - 382

Gazeta "Sharq NMAK"
bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent shahri,
Mirobod tumani
Buyuk Turon ko'chasi 41-uy
Buyurtma № G-1152
Bichimi: A3, hajmi: 2,0 b.t.
Adadi - 9400 nusxa